



## YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH.

*Shukurov Xursan Gadoyevich,  
Norova Intizor Haqberdiyevna,  
Turdiyev Yorqin Ochilovich.*

*Matematika fani o'qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi*

**Annotatsiya:** *Maqolada ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati haqida aytiladi. Shuningdek maqolada ayrim texnologiyalarning foydalanish usullari bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya, o'quv, jarayon, texnologiya, pedagog, pedagogik, usul, metod.*

Hozirda barkamol shaxsni tarbiyalash, respublikamizda kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida uzliksizligini taminlash, uning mazmunini takomillashtirish, otaonalar, talaba va o'qituvchilarda ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatlar barqarorlik asosida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga binaon bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturning "Uzliksiz talimni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplar" qismida "ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilar estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviy va ijodiy fikirlashni shakillantirish" zarurati alohida qayt qilindi. "Barkamol avlod", mustahkam oila davlat dasturlarini amalga oshirishda ilg'or inavatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barqaror ravishda foydalanish raqobatbardosh yuksak malakali kadrlarni tayyorlash yaqqol



sezilmoqda. Xo'sh pedagogik texnologiya nima? Uni amaliyotga qanday qilib joriy qilish mumkin?

Dastlab —Texnologiyal tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha 2 so'zdan — texnos —hunar va —logos — fan ,so'zlaridan tashkil topib , hunar fani ma'nosini anglatadi.O'zbekistonlik metodist B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyudagicha ta'rif beradi —Pedagogik texnologiya ta'lim jaraeniga yangicha endashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jaraenni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir. Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda e'shlarni ma'naviy intellektual rag'batlantirishning ahamiyatini kattadir. Ma'naviy intellektual sifatlarni zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jaraenga samarali o'zgarishlar kiritadi. O'quvchi ishlarning, talabalarning ma'naviy intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarni odilona baholash tizimi tarbiya mazmuni, usullari va uning tashkiliy shakllarini yaxshilashga doir tuzatishlar kiritilishi lozim.

Talabalarning bilimini, aqliyxolatlarini nazorat qilish va baholash davlat miqesidagi muxim ahamiyatga ega ishdir.Shu bilan birga, nazorat va baholash jaraeni o'quvchi bilimining boyishiga, ular shaxsining rivojlanishiga hamda tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning 3 vazifasi borligini alohida uqtiradi.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlarining qanday bajarilayotganligi to'g'risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi talabalarda bilimlar yanada kengayadi.



3. Ta'lim soxasidagi yaxshi natijalar èshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularga ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qizikishlar paydo bo'ladi. Jaxonning ilg'or tajribalari va ko'plab pedagoglar mehnatining natijasi o'laroq, reyting uslubi bugungi kunning eng maqbul nazorat mezonini deb qabul qilindi.

Interfa'ol ta'lim jaraënida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interaktiv ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, «interakti»- ya'ni inter - bu o'zaro, akti – xarakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi. Mana shu maqsadlar asosida darslarda yangi pedagogik texnologiyalar olib kirilsa, o'quvchi darsning tinglovchisiga emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Pedagogik texnologiya-shunday bo'limlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchilarda xurfikrlik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi. Bundan tashqari pedagogik texnologiya-ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi: - ta'lim-tarbiya berish; - axborotlarni avloddan-avlodga uzatish; - mustaqil fikrlashga o'rgatish; - bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish; - turli metodlarni qo'llash va takomillashtirish; - ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, halqparvarlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish; o'quvchining tayyorgarlik darajasini, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigiyenik talablarni



hisobga olish. Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni(ya'ni o'qituvchining, o'quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan. Hammamizga ma'lumki, inson hamma sohada biror maqsadga erishish uchun, o'ziga ma'qul bo'lgan yo'l, usul, vositalardan foydalanib, zarur faoliyatni amalga oshiradi. Demak, avval maqsad paydo bo'lsa, keyin shunga muvofiq, mavjud imkoniyatlarga suyanagan holdagi faoliyat kelib chiqadi. Ushbu sxemada pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari aks etgan. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga qo'llashda ko'nikma va malakalar muhim rol o'ynaydi. Ko'nikma va malakalarni til bilan tushuntirib bo'lmaydi, ularni amaliy faoliyatda ko'rsatish kerak bo'ladi. Shu sababli inson hayotining asosini faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar) tashkil etib, u o'quvchining muhim sifati sanaladi. O'quvchilarning dunyo haqidagi bilimlarida, bu borada tushunchalarni tarkib toptirishda xilma-xil ta'lim uslublari, vositalaridan unumli foydalanishga to'g'ri keladi. Geografik bilimlar nafaqat geografiya, balki, o'quvchilarning kelgusida qanday kasblarni egallashlaridan qat'iy nazar, ularning dunyo qarashlari takomillashuvi uchun nihoyatda zarur. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni o'quv-tarbiya mashg'ulotlari, ya'ni o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu muloqot davomida ularning har biri ma'lum faoliyat turlarini amalga oshiradilar. Ularning ushbu faoliyatlati bevosita pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonini hosil qiladi. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni o'qituvchi uchun so'zlash, ko'rsatish, topshiriqlar berish, nazorat qilish orqali mustaqil bilim olish va fikrlashga o'rgatishdan, o'quvchi uchun esa diqqatni jamlagan holda tinglash, kuzatish, topshiriqlar bajarish orqali mustaqil bilim olish va fikrlashga o'rganishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda hozirgi davrda pedagogik texnologiyaning ta'lim sohalarida foydalanilishi kadrlarning bilim salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin kasb etadi



**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Boltaboyev, M., & Abdurakhimova, S. (2023, June). THE GENERAL CONDITION OF THE CRIMEAN TATARS RESETTLED IN UZBEKISTAN AND THEIR ACTIVITIES IN THE NATIONAL ECONOMY. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 5, pp. 87-90).
2. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, August). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NONMUSLIMS IN UZBEKISTAN: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1251>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).